

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

AVAZOV NORMUROD HAKIMOVICH

**BEHBUDIY IJODIDA MILLAT VA MILLIYAT
MASALALARI TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on philological
sciences**

Avazov Normurod Hakimovich

Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini.....3

Авазов Нормурод Хакимович

Интерпретация вопросов нация и национальность в творчестве Бехбуди...34

Avazov Normurod Hakimovich

Interpretation of issues of nation and nationality in the works of Behbudi.....69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

AVAZOV NORMUROD HAKIMOVICH

**BEHBUDIY IJODIDA MILLAT VA MILLIYAT
MASALALARI TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil 410 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Afoqova Nodira Mahmudovna
filologiya fanlari doktori

To‘laganova Sanobar Panjiyevna
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44. (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____kuni tarqatildi.

2024-yil “___” _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

B.N.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
filol.f.d., professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida fenomenal shoir-u adiblar asarlari misolida tarixning burilish davrlarida milliylik, milliy xarakter va uning badiiy talqini masalalari yuzasidan muayyan tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Adabiyotning muayyan xalq ruhiyatini, orzu-umidlari va anduh-armonlarini ifoda etishi nazarda tutilsa, bu boradagi estetik qonuniyatlar jamiyatdagi ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lishi oydinlashadi. Bu esa milliylik, milliy xarakter, milliy tuyg‘u masalalarining badiiy adabiyotdagi in‘ikos etish xususiyatlarini aniqlash adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan ekanini tasdiqlaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida Turkiston jadidchilik harakati va jadid adabiyoti muammolari, xususan, o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida millat va milliyat masalalarining badiiy talqini bo‘yicha muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan va ushbu jarayon izchil davom etib kelayotir. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi murakkab va ziddiyatli tarixiy voqelik, Turkistonning mustamlaka iskanjasiga tushishi oqibatida o‘zbek xalqi qalbida milliy ozodlik g‘oyasining tug‘ilishi, dunyodagi mutaraqiy millatlar darajasiga yuksalish orzusining badiiy adabiyotga ko‘chishi masalalari mazkur tadqiqotlarning asosini tashkil qilgani ma‘lum. O‘sha davrda jahon adabiyoti tajribalarini o‘rganish, dunyo xalqlari estetik tafakkuri yutuqlarining badiiy sintezi yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishi va takomili uchun zarur sharoitni yaratdi. Bu esa, mazkur masalalarni muayyan ijodkorlar adabiy merosi misolida o‘rganish muhim ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida jadidchilik harakati va jadid adabiyoti tadqiqi bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Turkiston jadidchilik harakati karvonboshisi Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiy merosining birlamchi manbalari ma‘lum darajada o‘rganilgani, muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgani, asarlari joriy imlodan nashr etilgani buning isbotidir. Shunga qaramay, adib asarlarining qo‘lyozma va bosma manbalari, uning hayoti va ijodi bilan bog‘liq arxiv hujjatlarini, millat va milliyat masalalariga doir konseptual qarashlarini bugungi kun talablari darajasida o‘rganish zarurati hanuz adabiyotshunoslik kun tartibida turgan dolzarb muammolardandir. Chunki “O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma‘rifat tarqatish, ta‘lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanimiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma‘naviy kuch-quvvat olamiz”¹. Mahmudxo‘ja Behbudiy ana shu harakatning tan olingan

¹ Мирзиёев Ш.М. Жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига табрик /Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2023 йил, 7 март.

rahnalaridan ekani e'tiboridan buyuk adib ijodida millat va milliyat masalalarining yoritilish tamoyillari va xususiyatlarini o'rganish, badiiy va publitsistik asarlarida millat tarixi va ma'rifati g'oyalarining o'ziga xos talqini, mutafakkirning milliy til rivojiga doir konsepsiyasi mohiyatini ochib berish o'zbek jadid adabiyotining asosini tashkil etuvchi ilmiy muammo sifatida dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 21 - oktabrdagi PF – 5850 - son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020 - yil 30 - sentabrdagi “Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida”, 2020-yil 8 - oktabrdagi “Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir chora - tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20 - oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ – 2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ – 3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-son “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Turkiston jadidchilik harakati va jadid adabiyoti, xususan, Behbudiy adabiy merosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Tokio University (Yaponiya), Berlin – Brandenburgische Akademie der Wissenschaften AV, Gottingen Universitat, Berlin Universitat, Humboldt Universitat, Goethe Universitat (Germaniya), Oxford University (Buyuk Britaniya), Harvard University, Indiana University, Columbia University, (AQSh), Ankara Universitesi, Istanbul Universitesi, Nigde Universitesi (Turkiya), Oxford, Kembrij universitetlari (Buyuk Britaniya), Balx davlat universiteti (Afg'oniston), Aligarh Muslim University, Dehli University (Hindiston), Azərbaycan Milli elmler akademiyasi Nizami adina adabiyat instituti (Ozarbayjon), Institut vostochnix rukopisey v Sankt-Peterburge (Rossiya), Institut Vostokovedenie AN Ukraina im. A. Krimskogo (Ukraina), Instituti zabon, adabiyot, sharqshinosy va merosi xattii ba nomi Ro'daky (Tojikiston), O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti,

Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida olib borilmoqda².

Dunyo adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar natijasida o‘zbek jadid adabiyoti takomilida Behbudiy ijodining o‘rni yuzasidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan: Behbudiy muharrirligida nashr etilgan “Oyna” jurnali bibliografiyasi tuzilgan (Tokio University (Yaponiya); Behbudiyning o‘zbek dramaturgiyasining asoschisi ekanligi, “Padarkush” dramasi ingliz tiliga tarjimai, ilmiy tahlili; chor Rossiyasi va usmonlilar imperiyasiga jadid matbuotining ta’siri (Columbia University, Karlton University (AQSh); jadidchilik bo‘yicha tadqiqotlar tasnifi; Behbudiyning jamiyat hayotini modernizatsiya qilish borasidagi xizmatlari (Ankara Universiteti, Nigde Universiteti (Turkiya); Behbudiyning pedagogik qarashlari; publitsistik va muharrirlik faoliyati; o‘zbek jadid dramalarining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari (O‘zbekiston Milliy universiteti); Behbudiy shaxsiyati; ta’lim-tarbiya sohasini isloh etishga qo‘shgan hissasi; adabiy-tanqidiy qarashlari; ijtimoiy-siyosiy qarashlari va bu boradagi amaliy faoliyati; Behbudiy ijodining AQShda o‘rganilishi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (O‘zbekiston) kabilar shular jumlasidandir.

Jahon adabiyotshunosligida jadid ijodkor biografiyasi, xususan, ma’rifatparvarlar ijodini kompleks o‘rganish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ijodkor biografiyasi, adib va shoirlar ijodiy laboratoriyasi, manbalari, matn tahlili; adabiy asarlarda millat va milliyat masalasi; badiiy publitsistikasi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati, ilmiy-adabiy merosini o‘rganish har doim adabiyotshunoslikning diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘zbek adabiyotshunosligida Behbudiy adabiy-ma’rifiy merosiga munosabatni shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. *Behbudiy ijodiga zamondoshlarining xolis yondashuvi.* Hoji Muin Shukrullo, Abdulhamid Azamat, Laziz Azizzoda, Abdusalom Azimiy, Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, G.Andreyev, A.Samoylovich tadqiqotlarida Behbudiy ijodi yuqori baholandi, o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida ijodkor asarlarining tutgan o‘rni munosib e’tirof etildi³.

2. *Adib asarlarining tendensiozlik asosida biryoqlama talqin etilishi.* Bu guruh tadqiqotlariga xos yetakchi xususiyat Behbudiy ijodi tayyor mafkuraviy qoliplar negizida baholangani bilan xarakterlanadi. Xo‘qandiy Abdulla hoji, Rahmatulla

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://slc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; www.iaas.msu.ru; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; www.orientalstudies.ru; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uzk>; <http://www.samdu.uz> kabi manbalarda yoritilgan.

³ Muin X. Буюк устозимиз Бехбудий афанди / Мехнаткашлар товуши. – Самарқанд, 1920 йил, 8 апрель; Муин X. Махмудхўжа Бехбудий / Учкун. –Тошкент, 1923. – № 1; Муин X. Махмудхўжа Бехбудий / Инқилоб. – Тошкент, 1922. – № 3; Азимий А. Бехбудий ҳақида хотираларим / Зарафшон. –Самарқанд, 1923 йил. – № 32; Қодирий А. Аҳволимиз. Миллатимга бир қарор / Ойина. 1915. – Самарқанд. – № 12; Айний С. Бехбудий ҳазратлари тўғрисида хотираларим / Зарафшон. – Самарқанд, 1923. – № 32; У Самарқандского журнала “Ойина” и его редактор – издатель Махмудходжи Бегбуди / Туркестанские ведомости. – Тошкент, 1915 йил. – № 205; Самойлович А. Драматическая литература сартов / Вестник. – Петроград, 1917 год. – № 5.

Rahim, Mamajon Rahmonov, Hamid Olimjon va Uyg'un maqolalari shular jumlasidandir⁴.

3. *Istiqlol yillarida Behbudiy adabiy merosining ilmiy-nazariy asosda xolis baholanishi*. S.Qosimov, B.Qosimov, A.Aliyev, S.Ahmedov, N.Karimov, Sh.Turdiyev, U.Dolimov, H.Saidov tadqiqotlari⁵ ana shu yo'nalishda ekani bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, mustaqillik davrida Behbudiy ijodiga doir dissertatsiyalar himoya qilindi⁶, alohida monografiya va risolalar⁷ chop etildi. Jadidchilikka bag'ishlangan ayrim dissertatsiyalar va risolalarda Behbudiy faoliyatiga maxsus o'rin ajratildi⁸.

Behbudiy hayoti va faoliyati to'g'risida xorijda nisbatan oldinroq tadqiqotlar amalga oshirildi. E.Ollvort, E.Lazzerini⁹ tadqiqotlari buning isbotidir. Ayniqsa XX asrning 80-yillaridan keyin amalga oshirilgan yaponiyalik X.Komatsu, turkiyalik N.Davlat va Ahad Andijon, germaniyalik I.Baldauf, amerikalik A.Xolid tadqiqotlari¹⁰ alohida ajralib turadi.

⁴ Хўқандий А. Исроф ва беҳудалик / Садоий Фарғона. – Фарғона, 1914 йил, 23 май; Раҳматулла Р. Бузук мактаб боласи усули жадида / Туркистон вилоятининг газети. – Тошкент, 1908 йил, 12 июнь; Олимжон Ҳ. Жаид адабиётининг синфий моҳияти масаласига доир. Мукамал асарлар тўплами. – Тошкент, 1982; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Фан, 1968; Уйғун. Фош қилиш эмас, хаспўшлаш. Асарлар. 6-том. – Тошкент: Фан, 1978.

⁵ Қосимов С. Беҳбудий ва жаидчилик / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1989 йил, 19–26 январь; Қосимов Б. Жаидчилик. Миллий уйғониш. – Тошкент: Университет, 1993; Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2004; Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006; Қосимов Б. Уйғон миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011; Алиев А. Беҳбудий таълим-тарбия хусусида / Маърифат. – Тошкент, 1993 йил, 16 июнь; Алиев А. Маънавият, кадрият ва бадиият. – Тошкент: Академия, 2000; Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Каримов Н. Беҳбудий ва жаид адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – № 3. –Б. 3-7; Турдиев Ш. “Падаркуш” фожеаси ҳақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – № 7. – Б. 150-155; Аҳмедов С. Ўлимдан қўрмаган мутафаккир / Совет Ўзбекистони санъати. – Тошкент, 1989. – № 2; Аҳмедов С. Беҳбудийни таниш. – Тошкент: Академнашр, 2018; Долимов У. Туркистон жаид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006; Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ношир, 2012; Сайид Ҳ. Туғилдингми, бу дунёда толибсан! – Тошкент: Маънавият, 2007; Сайид Ҳ. Асл фарзанд / Маърифат. – Тошкент, 2009 йил, 1 январь; Сайид Ҳ. Янги адабиётга хайрли ёдгорлик // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2018 йил. – №5. –Б. 136-139.

⁶ Авазов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижодий мероси (манбалар): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Ахророва З. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий-амалий фаолияти: Пед. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1997; Саидов Ҳ. Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1998; Бобожонов Ф. Ўзбек жаид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002.

⁷ Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент, 1994; Саидов Ҳ. Озодлик либосидаги маърифат. – Тошкент, 1994; Алимова Д., Рашидова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудхўжа ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент, 1999; Яхшиликков Ж. Жаидчилик ва Беҳбудий. – Тошкент, 2004; Каримов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент, 2011.

⁸ Долимов У. Жаид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари: Пед. фан. док... дисс. – Тошкент, 2008; Мирзаева З. Ўзбек жаид адабиётининг Америкада ўрганилиши: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007; Ризаев Ш. Жаид драмаси. – Тошкент: Маънавият, 1997; Жабборов Н. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010.

⁹ Қаранг: Allwort E. Uzbek Literary Polites. The Hague: Mfuton and Co., 1964; Allwort E. The Beginngs of the Modern Turkestanian Teatr /Slavic Review, 1964; Allwort E. Central Asian Publishing and The Rise of Nationalism: – New York, 1965; Lazzenni E Ismail Bey Gaspirinskiy and Muslim moderusm in Russiya 1878 - 1914 University of – Washington, 1973.

¹⁰ Коматсу Х. Чиғатой гурунги / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1996 йил, 21 сентябрь; Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001; Davlat N. 1905–1917-yillari orasinda Rusiya Turkklarnin Milli Mucadelesi. – Istanbul, 2003; Ahat Andican. Cadidizmden Bagimesizliga Haricti Turkistan Mukadelesi. – Istanbul, 2003.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiy merosi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tadqiq qilish¹¹, asarlarini nashr ettirish¹² hamda ta‘lim tizimining barcha bosqichlari o‘quv dasturlari va darsliklariga¹³ olib kirishda Begali Qosimovning xizmatlari e‘tiborga loyiq. Adib “Tanlangan asarlar”ining 2018-yilgi ikki jildlik nashridagi ayrim maqolalar va “Kitobat ul-atfol” darsligi ushbu tadqiqot muallifi tomonidan tayyorlangan¹⁴.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishning ilmiy-nazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Millat va milliyat masalasining genezisi, takomili, istilohning jadid adabiyotidagi talqini, Behbudiyning “Padarkush” dramasida milliy ma‘rifat g‘oyasining badiiy ifodasi va jadid adabiyotiga ta‘siri, adibning badiiy-ilmiy publitsistikasida Turkiston tarixi, milliy til taqdiri va taraqqiyoti masalalarining yoritilish qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

millat va milliyat masalasining genezisini aniqlash;

Behbudiyning millat va milliyat haqidagi qarashlarini tizimlashtirish hamda jadid adabiyotiga ta‘siri omillarini belgilash;

ijodkor adabiy asarlarida millat ma‘rifati va tarixi masalalarining yoritilish tamoyillarini ochiqlash;

millatning siyosiy va huquqiy madaniyatiga doir Behbudiy qarashlari tadrijiy takomilini yoritish;

adib asarlarida milliy til taqdiri va taraqqiyoti konsepsiyasining ifodalanishi qonuniyatlarini asoslash;

maktab-maorifga doir Behbudiy qarashlarining ta‘lim islohidagi tutgan o‘rnini baholash;

Behbudiy ijodining yosh avlodni millat va milliyat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asarining 1913-yili Samarqandda nashr etilgan nusxalari (9438; 9439; 12265); “Kitobat ul-atfol” (14325) asarining 1908-yilgi; “Tarixi islom” (7274) asarining 1909-yilgi; “Madxali jug‘rafiyayi umroniy” (9433) darsligining 1905-yilgi nashrlari, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik

¹¹ Qosimov B. Karvonboishi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997; Qosimov B. Milliy uifonish: jasorat, ma‘rifat, fidoiilik. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002; Qosimov B. Uifongan millat ma‘rifati. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2011;

¹² Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997; Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999.

¹³ Qosimov B., Jumaхўжа Н. Ўзбек адабиёти. 10-синф дарслиги. – Toshkent: Ўқитувчи, 1999 (Tuzatilgan va tўldirilgan ikkinchi nashri – 2000; uchinchi nashri – 2001, tўrtinchi nashri – 2003); Qosimov B. Milliy uifonish davri ўzbek адабиёти. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004.

¹⁴ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Nashrga tayёрловчи С.Аҳмад. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Behbudiy M. Kitobat ul-atfol. Nashrga tayёрловчи: Н.Авазов. – Toshkent: Nashr ziёси, 2022.

instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan manbalar va Behbudiyning mustaqillik yillarida chop etilgan asarlari¹⁵ tadqiqot obyektini hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Behbudiyni asarlarida millat va milliyat masalalari talqini genezisi va takomili, istilohning jadid adabiyotidagi va Behbudiyni ijodidagi talqini, adib asarlarida millat ma‘rifati va tarixi, siyosiy va huquqiy madaniyati, milliy til taqdiri va taraqqiyoti hamda avlod tarbiyasi masalalarining yoritilish qonuniyatlarini o‘rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-funksional, sotsiologik, komponent tahlil, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

millat va milliyat masalalarining genezisi hamda tadrijiy takomili aniqlanib, ushbu istilohning jadid adabiyoti va Mahmudxo‘ja Behbudiyni ijod konsepsiyasini belgilashdagi o‘rni ochib berilgan;

“Padarkush” dramasi asosida milliy ma‘rifat g‘oyasining poetik ramz va timsollar vositasida ifodalanishi yoritilib, asarning “Baxtsiz kuyov” va “Juvonboz” dramalari bilan qiyosi orqali millat estetik tafakkuri hamda jadid adabiyoti takomiliga ta‘siri isbotlangan;

adib badiiy-publitsistik mahoratining negizi bo‘lgan ishontirish san‘ati so‘z tanlash, oz so‘zda ko‘p ma‘no ifodalash, fikr izchilligi va mantiqiy dalillash, fakt va ma‘lumotlar keltirishda aniqlik, voqelikka munosabat bildirishda xolislik kabi mezonlarga asoslanishi “Milliy tarix haqida”, “Turkiston tarixi kerak”, “Ehtiyoji millat”, “Turkiston”, “Duma va Turkiston”, “Turkiston muxtoriyati” kabi maqolalar misolida dalillangan;

Behbudiyni XX asr boshida Turkiston o‘lka matbuotida va nashrlarida chop etilgan ijodiy faoliyatining to‘liq bibliografiyasi tuzilib, “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar uchun yozuv kitobi”) darsligi, millatning erki va ozodligi, siyosiy va huquqiy madaniyatiga doir “Turk adami markaziyat firqasining nizomnomasi” ilmiy istifodaga olib kirilgan, “Kitobat ul-atfol”ning bugungi ma‘rifiy islohotlar jarayoni uchun ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan;

Behbudiyni Turkistonda yangi maktab g‘oyasining asoschisi ekani, maorif islohi yo‘lida keng ko‘lamdagi ahamiyatli ishlarni amalga oshirgani, “usuli savtiya” metodini yo‘lga qo‘yishdagi tashkilotchilik faoliyati, yosh avlodni Vatan va millatga muhabbat ruhida tarbiyalash tizimini yaratgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahmudxo‘ja Behbudiyni ijodida millat va milliyat masalalari talqiniga doir ilmiy materiallar va xulosalar o‘zbek jadid adabiyoti uchun muhim ilmiy-nazariy manba bo‘la olishi asoslangan;

adib badiiy va ilmiy publitsistikasida moziyni xolis va tizimli o‘rganish masalasi kun tartibiga qo‘yilgani, zamon talablari darajasida, yangi tadqiqotlar asosida yozilgan mukammal “Turkiston tarixi”ni yaratish, avvalgi asrlardagi turlicha

¹⁵ Behbudiyni M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997; Behbudiyni M. Tanlangan asarlar / 2-nashri/. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1999; Behbudiyni M. Tanlangan asarlar / 3-nashri/. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2006; Behbudiyni M. Tanlangan asarlar. J.I; J.II. Nashrga tayyorlovchi: S. A‘medov. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Behbudiyni M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2020; Behbudiyni M. Oйна (1914-1915). Nashrga tayyorlovchilar: Norqulov N., Rabimov K. – Toshkent: Akademiya, 2001; Behbudiyni M. Kitobat ul-atfol. Nashrga tayyorlovchi: N. Avazov. – Toshkent: Nashr zisosi, 2022.

talqinlar, bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bilan bitilgan tarix kitoblarini yangilash zarurati haqidagi qarashlari yoritilgan;

“Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Sart” so‘zi majhuldir”, “Sart” so‘zi ma‘lum bo‘lmadi”, “Til masalasi” kabi maqolalari misolida Behbudiyning milliy til taqdiri va taraqqiyoti masalalariga konseptual munosabati isbotlangan;

Behbudiyning milliy tarbiya g‘oyasini ilgari surganligi misollar asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘zbek adabiyoti ilmida jadid adabiyotining karvonboshisi ekanligi, Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodiy faoliyatiga oid o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan fundamental ilmiy-nazariy qarashlar keng o‘rganilgani; birlamchi manbalar, xususan, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” dramasi 9438; 9439; 12265 1837 raqamli qo‘lyozma nusxalari, “Kitobat ul atfol” (“Bolalar uchun yozuv kitobi”) (14325) raqamli qo‘lyozmaning ishga jalb qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyot tarixiga doir nazariy va amaliy qarashlarni boyitish, xususan, adabiy manbalar genealogiyasi, ilmiy – monografik tavsif, tayanch manbalarni to‘liq holda tavsiflash va tasarruf qilish, ilmiy-nazariy xulosalardan Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ijodkorlari adabiy merosini o‘rganishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, Oliy o‘quv yurtlari magistratura va bakalavriat bosqichlari uchun “Adabiy manbahunoslik tarixi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish, ma‘ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini muammosini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Millat va milliyat masalalari genezisi, tadrijiy takomili, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida millat tarixi va ma‘rifati, Turkiston xalqlari huquqiy madaniyatini o‘stirish va til taraqqiyotini ta‘minlashga doir xizmatlari, maktab-maorif islohi va avlod tarbiyasiga oid qarashlari evolyutsiyasiga doir tahliliy fikr va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023 - yil 4 - noyabrdagi 04/1-2322-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha o‘zbek jadid adabiyotida millat va milliyat masalalari talqiniga doir ilmiy qarashlar hamda yangi nazariy ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid ijodkorlari tafakkuri tadrijida Alisher Navoiyning millat va milliyat, turkiy xalqlar tili va estetik tafakkuri rivojiga doir konseptual qarashlarning o‘rni, adib ijod tutumi shakllanishi va takomilida ulug‘ mutafakkir asarlaridagi g‘oyalar zamin vazifasini o‘tagani haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020- yillarda bajarilgan “PZ-20170926459 raqamli

“Navoiyshunoslik tarixi” (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023 - yil 4 - noyabrdagi 04/1-2323-son ma’lumotnomasi). Natijada Behbudiy estetik tafakkuri va milliyat tuyg‘ulari takomilida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy konseptual qarashlarining ta’siri aniqlanib, zarur xulosalar chiqarishga asos bo‘lgan;

Mahmudxo‘ja Behbudiyning til o‘rganish, uning sofligiga erishish, tilning ijtimoiy aloqalar tizimida tutgan o‘rni masalalariga oid fikrlari hamda o‘zbek tiliga kirib kelgan, xalq uchun tushunilishi murakkab bo‘lgan ajnabiy so‘zlarni isloh qilish, turkiy leksikaga kirgan forsha va arabcha so‘zlarni tilning tabiatiga moslashtirish, bu jarayonni tashkil etish mexanizmi bilan bog‘liq qarashlari asosidagi tahliliy xulosalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022- yillarda bajarilgan “A-OT-2019-10 – “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy huquqiy asoslarini yaratish” (2019-2022) mavzusidagi amaliy loyihada joriylangan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023 - yil 4 - noyabrdagi 04/1-2324-son ma’lumotnomasi). Natijada Mahmudxo‘ja Behbudiyning millat va milliyat, turkiy til taqdiri va taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari misolida ma’rifatparvar jadid ijodkorlarining millat va milliyat, milliy til taqdiri va taraqqiysi bilan bog‘liq konsepsiyasi mohiyati bilan boyitilgan;

Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy til rivoji, til o‘rganishning ahamiyati, til va zamon taraqqiyotining uyg‘unligi, millatni dunyoning mutaraqqiy xalqlari darajasiga yuksaltirish omillari, Turkiston tarixini yaratish tamoyillari bilan bog‘liq qarashlari hamda yangi maktab g‘oyasining avlod tarbiyasida tutgan o‘rni hamda yoshlarni Vatan va millatga muhabbat ruhida tarbiyalash usullariga doir ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Tarixiy savol”, “Javohir” va “Taqdimot” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2023 -yil 3 - noyabrdagi 06-28-1429-son ma’lumotnomasi) Natijada ko‘rsatuvlar mazmuni jadid adabiyotiga doir ma’lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma’rifiy saviyasini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 38 ta ilmiy ish chop etilgan. 1 ta monografiya, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, hajmi 315 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi asoslanib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi *“Millat va milliyat masalasi: genezisi, takomili, istilohning jadid adabiyotidagi talqini”* deb belgilanib, uning birinchi faslida *“Muammoning genezisi va talqinlari”* masalasi tadqiq qilingan. *“Millat”* atamasi ikki xil: 1) e‘tiqodiy va 2) etnik birlik ma‘nolarida tushunilgani ma‘lum. Qadim yunon faylasufi Demokrit uni: “har bir mamlakatning yagona sohibi”, deb atagani ma‘lum¹⁶. Qur‘oni Karimda “millati Ibrohim” tarzida e‘tiqodiy birlik ma‘nosida qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlarida e‘tiqodiy va etnik birlik sifatida qaralgan. Irq va din, millat va mazhab masalalari dunyodagi millatlar, jumladan, turkiy xalqlar tarixida har doim diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘zbek adabiyotida millat tushunchasi etnos ma‘nosida Navoiydan boshlab ishlatilgani kuzatiladi. Lekin Navoiy millatni e‘tiqodiy birlik ma‘nosida ham tushungan. Iroqiyini faxr ul-millati vad-din Abdurahmon Jomiyini nur ul-millati vad-din, Xavofiyni zayn ul-millati vad-din, Pahlavon Muhammadni shams ul-millati vad-din deb atagani buning isbotidir. Qrim-tatar mutafakkiri Ismoilbek Gasprialining qarashlari ham shunga monand. *“Milliyat”* sarlavhali maqolasida u dunyo olimlarining bu masaladagi nazariyalarini tahlil etar ekan, din va millatni uyg‘un ko‘radi. Biroq u millatning etnik ma‘noni anglatishini ham nazarda tutadi. Mazkur maqoladagi: “Ajamlar ham, turklar ham musulmon bo‘ldilar, lekin arab bo‘lmadilar”¹⁷, degan xulosa buning isbotidir. Turkiston jadidlari, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham bu borada unga fikrdosh bo‘lgan.

Jadidlarda milliyat tushunchasiga e‘tibor kuchli bo‘lgan. Gaspriali *“Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana”* asarida millatni Ovrupo ilm-fanini o‘rganish, lekin milliy o‘zlikni anglash va saqlashga chaqirar ekan, yaponlarning: “Nom, shuhrat, rohat, saodatni milliyatlari doirasida hal qilish, vujudga keltirish uchun kurashgan”¹⁸ haqida yozadi. Saidrizo Alizoda esa: “Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur”¹⁹, – deb ta‘kidlaydi. Behbudiy fikricha: “...yovrupolilar qoshida milliyat masalasi muhim va muqaddas tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan *“sart”* haqida goh-goh bahs etub, milliyatimizni xotirlab turganda, zarar ko‘rmasmiz”²⁰. Jadidlarning bu boradagi qarashlarini tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday to‘xtamga keladi: *“Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi. Birlik deyilganda, asosan, lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik*

¹⁶ Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 64.

¹⁷ Гаспринский И. Миллат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 91-93.

¹⁸ Гаспринский И. Миллият. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 91.

¹⁹ Ализода С. Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар / Ойна. – Самарқанд, 1914. – № 11. – Б. 836.

²⁰ Бехбудий М. “Сарт” сўзи мажхулдир / Ойна. – Самарқанд, 1914. – № 23. – Б. 340.

ko‘zda tutiladi”²¹. Mazkur ta‘riflar hamda millatning millatligini belgilovchi bosh xususiyat tili, uni birlashtiruvchi kuch e‘tiqodi ekani e‘tiborga olinsa, milliyat atamasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: Milliyat – muayyan millatning til va e‘tiqod jihatdan birligini, uning o‘zligini – milliy fitrati, xarakteri va ruhiyatini saqlash tuyg‘usi, millat sifatida taraqqiy etishini ta‘minlash omilidir.

Bu masalaga o‘tgan asr avvalida jadidlar mustaqil taraqqiyotning eng muhim omili deb qaraganlar hamda millat va milliyat uchun butun kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan. Ushbu maslak yo‘lida bir tan-u bir jon bo‘lib, amaliy ishlari bilan maydonga chiqqan. Milliyat ular uchun milliy g‘oyaning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Bu istilohning badiiy adabiyotga ko‘chishi ham jadidlar ijodi bilan bog‘liq. Tavallo mashhur tatar shoiri Abdulla To‘qay g‘azaliga tazmin sifatida yozilgan “Jumla fikrim kecha-kunduz sizga oid millatim” deb boshlanuvchi she‘rida bu masala ijod konsepsiyasining asosi ekanini ta‘sirli ifodalagan:

*Ey ko‘zum nuri, belimni quvvati, jon-u dilim,
To tirikman, madh etarman millatim, milliyatim*²².

Millat va milliyatni shoir ko‘z nuri, bel quvvati, jon-u dil deb biladi. “To tirikman madh etarman” jumlasini bu uning uchun hayotiy maslak ekanini anglatadi. Shoir bu tuyg‘u o‘zi mansub millat qalbining to‘ridan joy olishini, millatning hayoti ana shu asosga qurilishini istaydi. Taassufki, hayotda buning teskarisini ko‘radi. Boshqa bir g‘azalida ko‘ngil iztiroblarini mana bunday talqin etadi:

*Hama o‘z boshiga avvora, millatga nazar qilmas,
Milliyat hislari bizda ko‘ring miqdor yo‘x, yo‘x, yo‘x*²³.

Shoir zamondoshlarining o‘zi bilan ovora bo‘lmay, millat taraqqiyatiga e‘tiborli bo‘lishini, ularda milliyat hislari kuchayishini istaydi. Radifning “yo‘x, yo‘x, yo‘x” tarzida takrorga asoslangani fikrning ta‘sir quvvatini oshirgan. Abdulla Avloniy: “Sarvatli millatlar milliyatlarini yo‘qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylاندurdilar va bu soyada bir-birlariga g‘alaba va raqobat qila boshladilar”²⁴, deya milliyatning kuchayishi millatning iqtisodiy va siyosiy quvvatiga ham bog‘liq ekanini aytadi.

Behbudiyning barcha asarlarida millat va milliyat ruhi ustuvor. Aksar maqolalarining sarlavhalarida ham bu tuyg‘u aks etgan. “Millat vazifasi”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar”, “Millatga murojaat”, “Millat jaridasi”, “Millatni kim isloh etar” kabi maqolalari buning isbotidir. “Padarkush” dramasi, “Oq yelpog‘ichli chinli xotun”, “Bir a‘mo bolaning hasrati”, “Bir vafolik zaifani xususida hikoya” asarlari, badiiy publitsistikasi, adabiy-tanqidiy maqolalari, sayohat xotiralari ana shu ruhda. “Millat vazifasi” maqolasi²⁵da millat taraqqiyatiga erishmog‘i yo‘lidagi eng muhim ishlar haqida yozib, millatni o‘z vazifasiga sobit bo‘lishga chaqiradi, mavjud tanazzul holatini isloh qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. Bular barchasi jadidlarimiz millat va milliyatni hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo‘yganidan dalolat beradi.

²¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 68.

²² Хўжамёров Т. Мархум Абдулла афанди Тўқаевнинг шеърига тазмин. Садоий Туркистон. – Тошкент, 1914 йил, 22 апрел.

²³ Тавалло. Миллат садоси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 49.

²⁴ Авлоний А. Танланган асарлар. – Тошкент. Маънавият, 2006. – Б. 47.

²⁵ Қаранг: Бехбудий М. Миллат вазифаси / Улфат. – Тошкент, 1906. №18, – №20.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Jadid adiblarining millat va milliyat haqidagi qarashlari”* deb nomlangan. Turkiston jadidchilik harakati namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiyning “millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmagunicha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi” degan xulosasiga qo‘shilgan. Millat taqdiri, istiqboli hamda taraqqiyoti masalalari ma‘rifatparvar jadidlarning barchasini o‘ylantirgan. Abdurauf Fitratning she‘rlari, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy va publitsistik asarlari bu jihatdan alohida ajralib turadi. Vadud Mahmudning 1923-yilda “Turkiston” gazetasida bosilgan “Behbudiy va uning tegrasida yig‘ilgan yozg‘uvchilar” maqolasida: “Behbudiy o‘zbeklarning ijtimoiy turmushlaridan olib tamoshalar yozish yo‘lini ham boshlagan va o‘z to‘garagidagilarga o‘ng eshigini ochib bergan edi. Fitrat shu davrning qattiq milliyat ruhi bilan sug‘orilgan yosh va qizg‘in bir milliy qahramoni bo‘lib, adabiyot maydoniga otlandi”,²⁶ deyilgan.

Millat taqdiri, yurt qayg‘usi, Vatan tuyg‘usi va istiqlol orzusi Fitrat ijodining leytmotivini tashkil qiladi. “Yurt qayg‘usi”, “Yurt qayg‘usi (sochma)”, “Yurt qayg‘usi” (“Bir o‘zbek tilidan”), “Yurt qayg‘usi” (“Temur oldinda”), “Mirrix yulduziga”, “Shoir”, “Behbudiyning sag‘anasin izladim”, “O‘git”, “Sharq”, “O‘qituvchilar yurtiga” singari she‘rlari buning isbotidir. Turkiston jadidlari yo‘lboshchisi vafotiga bag‘ishlangan “Behbudiyning sag‘anasini izladim” she‘rida millatga ko‘rsatilgan zulm va haqorat qoralanib, shoir qalbidagi qayg‘u va hasrat ta‘sirli ifodalanadi. O‘limlarni boshdan o‘tkazgan sabrli millat obrazi tasvirlanadi:

Bor kuchini to‘pladi.

Zolimning taxtini titratgan bir tovush

Qichqirdi:

– Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!

Bot so‘yla!..

Kirli toj ko‘b qo‘rqdi botur tovushdan,

Seskanib, titrab ... yoshrunderi

Bir javob bermasdan.

“Zolimning taxtini titratgan” bu nido yolg‘iz Fitratgagina emas, balki millatga oid edi. “Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!” – bu faqat shoirning emas, Turkiston jadidlarining hayqirig‘i edi. “Kirli toj ko‘b qo‘rqdi botur tovushdan” – mustabid tuzumning nohaqliklari javobsiz qolmasligiga ishora bor bu satrda. Uning javob bermasdan seskanishi, titrab yashirinishi sababi shunda.

Behbudiyning “Moziy – istiqbolning tarozisidir” degan mashhur iborasi hamda Abdulla Qodiriyning “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik” degan fikrlari o‘rtasida bog‘liqlik bor va bu tasodifiy emas. Abdulla Qodiriy asarlari milliy ruhning betakror talqin etilgani jihatidan ham ahamiyatlidir. “Ahvolimiz”, “To‘y”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il” she‘rlari ushbu fikrni tasdiqlaydi. “Fikr aylag‘il” she‘ri Behbudiyning “Oyina” jurnali 1915-yil 12-sonida bosilib chiqqan. Bu ikki buyuk ijodkorning munosabati nechog‘liq yaqin bo‘lganini ko‘rsatadi. “Millatimga bir qaror” she‘rida shoir millatga mana bunday xitob qiladi:

Kel, ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o‘lsun,

Bu kundan o‘tgan ishlarga pushaymon birla or o‘lsun,

²⁶Маҳмуд В. Беҳбудий ва унинг теграсига йиғилган ёзғувчилар /Туркистон. – Тошкент, 1923 йил, 10 декабрь.

*Qilaylik bul kuni g'ayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho'l sahrosida minba'd sabzavor o'lsun*²⁷.

Buyuk adib publitsistikasida millat va uning taqdiri bilan bog'liq kuchli tanqidiy qarashlar, Turkiston hayotining barcha jabhalarini isloh etish g'oyalari dadillik va topqirlik bilan yoritiladi. Mustamlaka ma'murlarining hiyla-nayrangi keskin fosh etiladi. "Saylovmi, bosqinchilikmi?", "Qimmatchilik hasrati", "Bozor surushtirmaydur", "Azob boqchasida yig'i-sig'i kechasi", "Qazoyi osmoniylar", "Haqiqat – ochib so'zlashdadur", "Qurbonlik o'g'rilari", "Mochalov", "Dardi yo'q kesak" kabilar shular jumlasidandir. Behbudiy va Qodiriy publitsistikasi ko'p jihatdan hamohang. Behbudiy Turkistondagi saylovlar mavzusiga ko'p murojaat qilgan. Ma'lumki, Chor Rossiyasida davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar Dumada ko'rib chiqilgan. Behbudiy millat va milliyatni asrashda Dumadan foydalanish zaruratini "3-dumaning zul-ehtrom musulmon fraksiyasi rijoli mujohidlari majlislarina", "Saylov haqinda", "Saylangan mansabdor shaxslarning tasdiq qilinishi haqinda", "Gasudarstvenniy дума vakillari xususida", "Duma va Turkiston" maqolalarida ko'tarib chiqdi. Qodiriyning "Saylovmi, bosqinchilikmi?" maqolasi Mazlum taxallusi bilan e'lon qilingan. Maqolada Toshkent shahar dumasiga navbatdagi qayta saylov o'tkazish masalasi obyekt qilib olingan. Adib: "...bu saylovimiz yashirin, tekiz, har kishining xohishicha bo'lmay, ulamo, boy va maxdumlar bosqinchiligi ostinda ijro etildi", deb saylovning adolatsiz o'tganini tanqid ostiga oladi. Saylovni o'tkazishda hurriyat va huquqqa qarshi eskilik tarafdorlari ko'pchilik bo'lganidan hayratini bildiradi. Millatga murojaat etib, agarda kelajak uchun ishlamasak, bora-bora shariat va maishatimiz qo'limizdan ketishini aytib ogohlantiradi²⁸. Abdulla Qodiriy maqolalarida Behbudiy asarlaridagi g'oyalarning davom etgani kuzatiladi. Behbudiy Dumaga mahalliy aholi vakillarini saylash orqali Turkistondagi ahvolni o'nglashga intilgan bo'lsa, Qodiriy "Saylovmi, bosqinchilikmi?" maqolasida eski hukumat ma'murlari fuqarolarning saylov huquqini poymol etayotgani haqida yozadi.

Millat va milliyat masalalari Abdulla Avloniy ijodida ham o'ziga xos talqin etilgani kuzatiladi. Uning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darsliklari, "Avdokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va Siz", "Ikki sevgi", "Po'rtugaliya inqilobi" dramalari hamda hajviy asarlarida ushbu mavzu yetakchi o'rin tutadi. Bu jihatdan, "Adabiyot yoxud milliy she'rlari" turkumi, ayniqsa, alohida ajralib turadi. Majmuadagi she'rlarda millat ma'rifatini yuksaltirish, boshqa millatlar ilm-u hunar egallab, taraqqiyot sari intilsalar, bizning millat jaholat iskanjasida qolgani iztirob bilan talqin etiladi. Jumladan, "O'z millatimizdan rajoyi ojizonam" she'rida mana bunday yozadi:

*Yotursan tobakay g'aflat quchog'inda, uyon, millat,
Jaholat jomasin ustingdan irg'it, tur, zamon, millat,
Ketib hamrohlar, san yo'lda qolmakdan o'ton, millat,
Tur, o'tmay vaqt noz uyqudan ko'bdur ziyon, millat.*

²⁷ Қодирий А. Диёри бақр. Ж.ІІІ – Тошкент: Інфо Капітал Груп, 2017. – Б. 7-11.

²⁸ Қаранг: Бехбудий М. Танланган асарлар. Ж.І. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 285 - 288.

Abdulla Avloniy millat istiqboli uchun kurash g'oyasini o'ziga xos uslubda, yangicha obraz va ramzlar orqali ifodalab, o'zbek jadid adabiyotida Behbudiy boshlab bergan an'anani munosib davom ettirdi va boyitdi.

Ishda, bundan tashqari, Hoji Muin, Abdulhamid Cho'lpon va Hamza ijodida millat va milliyat g'oyalari talqini to'g'risida tahliliy fikrlar berilgan.

Tadqiqotning *“Behbudiyning adabiy asarlarida millat ma'rifati va tarixi masalalarining yoritilishi”* deb nomlangan ikkinchi bobi birinchi faslida *“Padarkush” dramasida milliy ma'rifat g'oyasining badiiy ifodasi va jadid adabiyotiga ta'siri* o'rganilgan. O'zbek jadid dramasi paydo bo'lishi va takomili Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va milliy estetik ehtiyoj – “Ma'rifat nuridan bebahra qolayotgan kishilar uchun milliy teatr san'atini yaratish”²⁹ zarurati natijasi edi. Milliy damaturgiya va teatr san'ati maydonga kelishida Behbudiyning o'rni va roli beqiyos. U “Padarkush” (yoxud o'qimagan bolaning holi)ni 1911-yilda yozdi. 1913-yili chop etilgan asar 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda sahnaga qo'yildi. Jadidlar ibratxona deb atagan teatrga rus, yahudiy va musulmon demasdan butun xalq katta qiziqish bilan intilgani ma'lum. Dramaning Toshkentdagi namoyishida Munavvarqori teatrning millat ma'rifatini yuksaltirishdagi o'rni haqida nutq so'zlagan. “Bu nodonliq va dunyodin xabarsizlik balosidin qutulmak uchun, eng avval, oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va o'rganmak kerakdur. Bas, bizga buni bildiruvchi va o'rganuvchi yolg'iz tiyatr sahnasidir”³⁰. Munavvarqorining ta'kidlashicha: “Bu o'zbek madaniyati tarixida buyuk voqea bo'lib, zamonaviy milliy teatrning tug'ilishi edi”³¹. Teatr namoyishi kuniyoq “Oyina”da asar haqida taqriz bosildi³². Muallifi ko'rsatilmagan maqolada asarning mohiyati va Xayrullo, domla, Toshmurod va boshqa obrazlarga alohida diqqat qaratilgan. Shuningdek, spektaklda boy roli mahorat bilan ijro etilgani, ya'ni boyning tipik obrazi yaratilgani, uning millatga ko'rsatilgan oyna bo'lgani yoritilgan. 1914-yil 22-yanvarda Hoji Muin o'zining “Yangi asar” nomli taqrizida “Padarkush”ga munosabat bildirdi³³. “Turkiston shevasig'a yozilg'on ushbu risolada Turkiston maishatidin bir fojiani g'oyat muassir ravishda tasvir etilmishdur. Mana bundin olinadurgon ibratimiz shulki, boy farzandlarini o'qutmagoni uchun farzandlari o'z boshig'a balo bo'ldi va o'zlari ham umrlik Sibirga ketub, na dunyodin, na otasi davlatidan baxt va rohat ko'rmadilar. Bu foydali risolaning mutolaasini turkistonlik yosh birodarlarimizga ham tavsiya etarmiz”.

Dramada o'qimagan bola-yu, ma'rifatni istamagan otaning ayanchli taqdiri orqali muallif ilmsizlik, jaholat, axloqsizlik kabi illatlarni sahna orqali ko'rsatib, xalqni ma'naviy inqirozdan qutqarish kerak, degan g'oyani ilgari suradi. “Birinchi o'zbek dramasi” tadqiqoti³⁴ muallifi, amerikalik olim E.Ollvort “Padarkush” dramasini mahorat bilan ingliz tiliga tarjima qilgan. U Behbudiyning shakl, mazmun va til jihatdan betakror asar yaratganini aytadi: “U boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o'laroq ijro etish, ko'rsatish xususiyatiga ko'ra mahalliy aholi

²⁹ Каримов Н. Бехбудий ва жадид адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №3. – Б. 5.

³⁰ Абдурашидхонов М.Биринчи миллий театр /Туркистон вилоятининг газети. – Тошкент, 1914 йил. – №17.

³¹ Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 153-155.

³² Туркистонда биринчи миллий театр / Ойина. – Самарқанд, 1914 йил. – №14. – Б. 227-231.

³³ Ҳожи М. Янги асар. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 64.

³⁴ Олворт Э. Биринчи ўзбек драмаси // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2009. – №8. – Б. 107-113.

ko‘ngliga birdek yo‘l topa oldi... “Padarkush”ning sahna asari sifatidagi o‘ziga xos fazilati, muallif zamonasining mudhish va jirkanch illatlarini ochiq namoyish etgani bilan belgilanadi. Demak, Markaziy Osiyoda birinchi zamonaviy sahna asari “Padarkush” nomi bilan boshlandi va rivoj topdi”³⁵.

Lekin muallifning: “Markaziy Osiyodagi ilk drama bo‘lgan “Padarkush” uchun bunday murakkab mavzuning tanlanishi u darajada to‘g‘ri yo‘l emasdi”, degan fikri milliy mentalitetni tushunmagani natijasidir. Holbuki, o‘sha davrda bunday mavzuning tanlanishi zarurat edi. Dramada ma‘rifatga rag‘bat qilmayotgan Turkiston boylarining umumlashma obrazi yaratilgan. Boyning asosiy qahramon qilib olinishi bejiz emas. Millat ma‘rifatini yuksaltirish g‘oyaning o‘zi bilangina amalga oshmasligi ayon, buning uchun katta sarmoya ham zarur edi. Jadidchilik g‘oyalarini jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, millat boylarini jalb etmasdan bajarish imkonsiz edi. “Yoshlardan himmat va g‘ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerakdur”³⁶ deganda Behbudiy shuni nazarda tutgan edi.

“Padarkush”dan ta’sirlanib birin-ketin sahna asarlari yozila boshladi. “Qodiriyning “Ahvolimiz” va “Millatimga” she’rlari hamda “Juvonboz” dramasi Behbudiyga taqlidan yozilgan”³⁷. Qodiriy “Baxtsiz kuyov” dramasini “Padarkush” ta’sirida 1915-yili yozdi. Ayni paytda 1915-yil 23-sentabr kuni “Туркестанская ведомости” (№210) gazetasida “Abdulla Qodiriyning Turkiston musulmonlari hayotidan olingan to‘rt pardali “Baxtsiz kuyov” nomli sartrlarning teatri”ga G.Andreyevning taqrizi³⁸ e‘lon qilindi. Adib “Bizda teatru ishining borishi” maqolasida: “Padarkush” risolasi Turkistonning, umuman, deyarli har bir katta-kichik shaharlarida mavqi’ tomoshaga qo‘yilub, yoshlarimiz uchun bir daraja teatru maqsadi onglashilur. Mana shundan so‘ng bizda teatr masalasi bosh ko‘tarib, yarim-yorti teatr risolalari yoza boshlaymiz”³⁹, deya ta’kidlaydi.

Fitratning “Abulfayzxon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari”, Cho‘lponning “Yorqinoy”, Avloniyning “Partugaliya inqilobi”, Hamzaning “Muxtoriyat yoki avtonomiya” kabi asarlari ham Behbudiy dramasiidagi milliyat g‘oyasining badiiy tasviri an’anasi davom ettirilgani va takomillashtirilgani jihatidan qimmatlidir.

Bobning ikkinchi faslida **“Behbudiyning badiiy va ilmiy publitsistikasi: tarixni o‘rganish va Turkiston tarixini yaratish muammolari”** tahlilga tortilgan. Behbudiy publitsistikasining ta’sir kuchi katta. Ular o‘z davridayoq keng xalq ommasi, xususan ziyolilar davrasiga yetib borgani ma’lum. Behbudiy har bir maqolasi ustida jiddiy o‘ylaydi, uning kimga mo‘ljallangani, nima maqsadda yozilayotganini aniq tasavvur etadi. Adibning mahorati sarlavhalar tanlashida ham yaqqol ko‘rinadi. Ularda muallifning maqsadi yaqqol ifodalanadi: “Haq olinur, berilmas”, “Milliy tarix haqinda”, “Turkiston tarixi kerak”, “Ehtiyoji millat”, “Millatni kim isloh etadi”, “Bizni kemirguvchi illatlar”, “A’molimiz yoyinki murodimiz”, “Turkiston muxtoriyati”, “Milliy tariximizni kim yozar”. Muhimi, ularning aksarida adibning shaxsiy munosabati ochiq aks etadi. Ba’zilarida tasdiqlash, ma’qullash ruhi aks etsa,

³⁵ Keltirilgan manba. – B. 107-113.

³⁶ Бехбудий М. Ўқувчиларга ёрдам керак / Ойина. – Самарқанд, 1914. – №31. –Б. 601-602.

³⁷ Султон И. Асарлар. Тўрт томлик. Т. II. – Тошкент: Ф.Ғулом, 1972. – Б. 336.

³⁸ Андреев Г. Сартовский театр “Бахтсиз кияв” драма въ ихъ действияхъ изъ жизни Туркестанскихъ мусульманъ Абдулла Кадыри /Туркестанская ведомости. – Ташкент, 1915 года, 23 сентября.

³⁹ Қодирий А. Бизда театру ишининг бориши / Иштирокиюн. – Тошкент, 1919 йил, 11 декабрь.

ayrimlarida inkor ifodasi kuchayadi. Sarlavhadanoq adibning voqelikka munosabati, tuyg‘ular shiddati, biror voqea yoki muammo yuzasidan erkin ehtirosli fikr bildirishga da’vat kuzatiladi.

Behbudiyning masalani kun tartibiga qo‘yish usuli o‘ziga xos bo‘lib, u ishni “muqaddima”dan boshlaydi. Bu bilan u o‘quvchini ruhan tayyorlaydi, uning fikrini ayni mavzuda jamlaydi. Ayni paytda o‘zi so‘zlamochi bo‘lgan muammoning eng muhim qirralari boshqalar tomonidan idrok qilinishi va ilg‘ab olinishiga sharoit yaratadi. Ayrim maqolalarida bu holat ochiqdan ochiq namoyon bo‘ladi. Ishontirish san’ati – adib mahoratining yorqin belgilaridan biridir. Har bir maqola aynan shu san’at hosilasidir. Ifoda uchun so‘z tanlash, fikrning mantiqiy oqimi, izchilligigina emas, keltirilayotgan fakt va dalillar, hattoki voqea tafsilotidagi aniqlik va xolislik ana shu ishonchni ta’minlaydi. Behbudiy maqolalari hajman ixcham, yirik maqolalari yo‘q hisobi. Eng yirigi hozirgi o‘lchamda 5-6 qog‘oz. Aksari ikki-uch qog‘oz hajmida. Aslida ham, Behbudiy maqolalarining kuchi ixchamligida, fikrning siqiq, lo‘nda va aniqligidadir.

Adib publitsistik maqolalarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan xususiyat bu – muayyan fikr, g‘oya yoxud faktlar takroridir. U muhim deb hisoblangan o‘rinlarda ayni shu yo‘lni tutadi. Bu kabi takrorlar muallif uslubining zaif jihati emas, aksincha uning dunyoqarashi va maqsadlaridagi izchillik va sabot bilan izohlanadi. Qolaversa, takrorlar faktlar bilan aloqadormi yoki fikr yo‘nalishi bilanmi, qat’i nazar, muallif undan o‘z maqsadiga erishish yo‘lida foydalanadi, ya’ni ularni o‘z adresatiga yetkazish vositasi, deb biladi. Masalan, u mana bunday yozadi : “To‘y va ta’ziyaga sarf qilinaturgan aqchalarimizni biz Turkistonlilar ilm va din yo‘liga sarf etsak, qariyb ovrupaliklardek taraqqiy etamiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizda davom etsak, din va dunyoda zalolat va masnunatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”. Yana bir misol: “Maktab va madrasalar ochmoqqa, jamiyat va shirkatlik tijoratxonalar ta’sis etmoqqa harakat etaylik. Rossiya va Ovrupa, Misr va Istambulga talaba yubormoq kerakdur. Oy Turkistonli musulmonlar, boshqa nasibamiz bo‘lmaydur”⁴⁰.

Oldindan ma’lum bo‘lgan voqelik haqida gap ketganda, adib ixcham va qisqa, lo‘nda ifodalar bilan kifoyalangan. Aksincha, mahalliy aholi, suhbatdosh, o‘quvchi uchun yangilik yoki notanish bo‘lgan hodisa yoki tushuncha haqida so‘z yuritganda, erinmay izoh beradi. Masalan: “Melkiy kredit ism ila hukumat Turkiston muzofotining aksar nohiyalarida kichkina banklarni uch sanadan beri ochmoqda. Har nohiya, ya’ni vulusning ikki-uch dahasidan uch- to‘rt nafar a’zo saylanadur. Bu a’zolar daha ahlidan aqcha qarz olaturganlarig‘a sakkiz-to‘qqiz muddat bilan o‘n ikki foiz ya’ni bir yuz so‘mg‘a bir yil muddatg‘a o‘n ikki so‘m foyda ila qarz beriladur”⁴¹. Adib bu so‘zlarni o‘z-o‘zicha qo‘llamaydi. Ularning notanish ekanini nazarda tutib, o‘zbek kitobxoniga ma’lum bo‘lgan boshqa bir so‘z yoki izoh bilan uni tushuntirib ketadi. Masalan: “Учредительная собрания” tushunchasi “majlisi muassison” (“Haq olinur, berilmas”), federatsiya – muxtoriyat (“Haq olinur, berilmas”), kaloniya – mustamlakot (“Bayoni haqiqat”). Albatta, ularning barchasi oddiy xalqqa tushunarli, deb aytish qiyin. Ba’zan muqobil so‘zlarni topishda qiynalgani, hatto bunday so‘zlar

⁴⁰ Бехбудий М. Бизни кемиргувчи иллатлар / Ойина. – Самарқанд, 1915. – №13. – Б. 338-342.

⁴¹ Бехбудий М. Майда қарз / Ойина. – Самарқанд, 1914. – №1. – Б. 23-24.

topilmagani kuzatiladi. Masalan, “ultimatum” soʻzini “rasmiy bir qogʻoz” deb izohlash bilan cheklanadi.

Adib maqolalarining maqsadi bevosita tugallanma bilan bogʻlanib ketadi. Muallif maqsadni toʻgʻri va toʻla anglatmoq uchun uni maqola oxiriga suradi. Ayrim maqolalar “qoʻshimcha dalil” bilan yakunlanadi. Bu vazifani hikmatli soʻzlar, xalq maqollari yoki mashhur kishilarning ibratomuz fikrlari bajarishi mumkin. Masalan, “majlisi muassison bizga berilmaydur, balki oʻzimiz olsak, azbaski haq olinur, berilmas”⁴².

Behbudiy Turkistonning haqqoniy tarixini oʻrganish dolzarb, moziyini bilish oʻzlikni anglash ekanini aytdi, millat va Vatan tarixini yaratish zarurligiga alohida diqqat qaratdi. Aksar ilmiy-publitsistik chiqishlarida bu masalaga munosabat bildirdi. “Tarix va jugʻrofiya” maqolasida: “Asbobi nuzuli Qurʻon, vahiy va suduri sunnatni bilmoq, tarix bilmoqgʻa mavqufdur. Oʻtgan ulamomizni asarlarigʻa qaralsa, ilmi tarix oʻqumoqni lozim-u farzligi bilinur... Har kim uchun tarix oʻqumoq kerak. Chunki har nimarsa va ishning asli va fasli tarixdan bilinur. Katta kishi boʻlmoq uchun tarix bilmoq lozimdur”⁴³. Insonning shakllanishi va kamol topishida tarix fanining oʻrni beqiyos ekanini taʼkidladi. 1914-yili “Oyna” jurnali 38-sonida uning “Turkiston tarixi kerak” nomli muammoli ilmiy-publitsistik maqolasi chop qilindi. Milliy tarixni yaratish gʻoyasini ilgari surar ekan, mutafakkir: “...tarix koʻp ahamiyatli va foydali bir narsadir. Shuning uchun bizning oʻz shevamizda, Turkistonlik oʻtgan bobolarimizning maishiy siyosiy ahvoriga doir “Turkiston tarixi” bor boʻlganda, oni koʻz oldimizda qoʻyub, burungi qahramon bobolarimizning na yoʻl ila taraqqiy va madaniyat davrigʻa kirib va nima sababdin oxiri munqariz ketganlarini oʻqub bilib, xiyla ibrat olar eduk. Holo, biz Turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixidan butun gʻofil va bexabardirmiz. *Chunki Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgʻon tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudga kelgani yoʻq*”⁴⁴.

Adib xalqlar va millatlarning tarixi mukammal boʻlishi tarafdori edi. “Sart” soʻzining Turkiston oʻlkasi davrida qoʻllanishi toʻgʻrisida matbuot chiqish qilishi sababi shunda. “Oyina” jurnalida chop etilgan “Sart” soʻzi majhuldur” (1914-yil №22 – 25) maqolasi buning isbotidir. Muallif “sart” soʻzining paydo boʻlishidan tortib, “Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abdulgʻozi Bahodirxon asarlarigacha, N.Ostroumov kitobidan D.G. Logofetning “Buxoro xonligi”- yu L.Budagov lugʻatlarigacha, I.Geyer “Sayohatnoma”laridan A.Vamberi “Kundaliklar”igacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha boʻlgan namoyandalari kuzatishlarigacha toʻplab, xulosalaydi”⁴⁵ va sart soʻzi etimologiyasini tahlil qiladi. Keyin “Sart soʻzi maʼlum boʻlmadi” maqolasi eʼlon qilindi⁴⁶. Jurnalning 1914-yil 24-sonidagi chiqishida “Sart” deb tahqir maqominda ham aytarlar. Turkiston va Buxoro xalqining qozoq, tatar va ruslardan boshqa bir kimsa “sart” demas va ruslarni “sart” atalgani ham qozoq va tatarlarni vositasidur”, deydi. Mutafakkirning “sart” soʻziga boʻlgan munosabati uning millatga boʻlgan

⁴² Бехбудий М. Ҳақ олинур, берилмас / Хуррият. – Самарқанд, 1917 йил, 17 июль.

⁴³ Бехбудий М. Тарих ва жуғрофия. – Тошкент: Академнашр, 2001. – Б. 26.

⁴⁴ Бехбудий М. Туркистон тарихи керак. – Тошкент: Академнашр, 2001. – Б. 66-67.

⁴⁵ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 226 - 227.

⁴⁶ Бехбудий М. “Сарт” сўзи маълум бўлмади / Ойина. – Самарқанд, 1914. – №39. – Б. 922-924.

ehtiromi dalili edi. Behbudiy kelajakda avlodga tarixni adolatli ravishda yozilgan holda yetkazishni niyat qilgan. Uning orzu va niyatlari bugungi mustaqilligimiz faniga va ilmiga asos edi.

Ishning uchinchi bobi “*Behbudiy asarlarida millatning siyosiy ma’rifati, huquqiy madaniyati va milliy til muammolari*” tadqiqiga bag’ishlanib, uning birinchi faslida “*Millatning siyosiy va huquqiy madaniyatiga doir Behbudiy qarashlari tadriji*” tahlil etilgan. Taraqqiyparvarning XX asrning boshlaridan umrining oxiriga qadar yozgan siyosiy va huquqiy madaniyatiga doir chiqishlari muhimdir. Uning “Saylovlar haqida”, “Gasudarstvennaya дума vakillari xususida”, “Hurriyat – ozodlik – svoboda – erkinlik”, “Saylangan mansabdor shaxslarning tasdiq qilinishi haqida”, “Gosudarstvennaya дума – millat majlisi xususida”, “Xayrul umuri avsatuho”, “Duma va Turkiston”, “Qonuni Ovrupo”, “Millatg’a murojaat”, “Haq olinur, berilmas”, “Turkiston muhtoriyati”, “Qozoq qarindoshlarimizg’a ochiq xat”, “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”, “Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi”, “Turk adami markaziyat firqasining nizomnomasi” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Behbudiy Turkistondagi jaholat va qoloqlikka, diniy mutaassiblikka va zulmga qarshi kurash olib bordi. U o’lkani iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatdan taraqqiy qildirish harakatida bo’ldi. 1905 va 1917-yillardagi rus inqilobini va 1917-yilgi fevral revolyutsiyasini ko’rdi. Natijada Turkistonda milliy mustaqil davlatchilikni barpo etish, davlat tilini joriy qilish, demokratik yo’l bilan o’tkaziladigan parlament saylovlari asosidagi parlamentga erishish kerak, degan xulosaga keldi. U bunda hamma millatlarning teng huquqli erkin ishtiroki, tilining, dinining va urf-odatlarining daxlsizligi masalalarini dadillik va insonparvarlik pozitsiyasidan turib ko’tarib chiqdi va kurashdi. “Behbudiy Turkistonni eng avval chor hukumati qo’lidan qutqarmoq fikrini elga talqin qilg’uvchilardan, aholining ezilganligini birinchi daf’a sezganlardan ham bu haqida nurli usta yo’llar ila xalqni istiqbol kurashiga chaqirib yozg’uvchilardandir”⁴⁷.

Turkistondagina emas, Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg’oniston, Hindiston va Turkiyada ham o’z muxlislariga ega bo’lgan⁴⁸ “Oyina” jurnalida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Adib Turkiston *istiqloli* g’oyasini siyosiy yo’l bilan amalga oshirish tarafdori bo’ldi. Behbudiy publitsistikasidagi ijtimoiy motivlar asta - sekin siyosiy darajaga ko’tarila bordi. Bu hol burjua inqilobidan keyin, ayniqsa, yaqqol kuzatildi. Zero, burjua inqilobi o’z dastur va va’dalariga ko’ra, butun jadidlar qatorida Behbudiy ko’nglida ham umid va ishonch uyg’otgan edi. O’sha kezlari u: “...*haq olinur, berilmaydur*. Har bir millat va mamlakat xalqi o’zini huquqini diniya va siyosiyasini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasin. Biz istaymizki, butun Rossiya musulmonlari *muxtoriyat (federatsiya)* usuli yuzasidan tirikchilik qilsunlar”⁴⁹, deb yozdi. Halim Saidov fikricha, ushbu maqolada birinchi marotaba “muxtoriyat” so’zi qo’llangan. Behbudiy dastlab Rossiya tarkibida federatsiya

⁴⁷ Азиззода Л. Бехбудий. Танланган асарлар. Ж. II. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 258.

⁴⁸ Муин Х. Махмудхўжа Бехбудий / Учқун. – Тошкент, 1922. – №1.

⁴⁹ Бехбудий М. Баёни ҳақиқат / Улуғ Туркистон. – Тошкент, 1917 йил, 12 июнь.

masalasini ilgari surgan. Bunda chegara bir bo'lsa-da, muxtor jumhuriyatni uning o'z fuqarosi saylangan parlament boshqarishi haqida gap boradi⁵⁰.

Behbudiy matbuotdagi dastlabki chiqishlaridan e'tiboran siyosiy jarayonlarga munosabat bildirib borgan. U kommunistik mafkurani keskin ravishda inkor etib, "...bu toifaga qo'shilmog' biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlik", deb yozgan edi⁵¹. Behbudiy – kuchli siyosatchi. 1917-yili Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlari qurultoyida qatnashgan va u yerda ma'ruza ham qilgan. Adib musulmonlar o'rtasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqqan. Mazkur qurultoyda taraqqiyparvar musulmonlar sho'rosining raisi sifatida saylangan. Ma'lumki, 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining to'rtinchi favqulodda qurultoyi ish boshlab, 27-noyabrda Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan. Muxtoriyatning g'oyaviy tashkilotchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

Adib mustamlaka tuzumning o'zi o'ylab topgan "demokratik дума"ga "saylab qo'yiladigan" vakillarni jalb qilish orqali muammolarni hal qilish g'oyasini ilgari surdi. Behbudiyning inson va millat huquqlari sohasidagi qarashlarida boshqa mutafakkirlardan ajralib turadigan xususiyatlar, birinchidan, u o'zidan oldingi barcha allomalar merosini chuqur o'rgangan, barchasini asliyatda mutolaa qilgan. Ikkinchidan, tarixiy jarayonlarga baho berishda aniq mustaqil fikrga ega edi. Uchinchidan, musulmon tarixi va huquqini chuqur egallagan. Musulmon huquqiy ma'rifatini jamiyatga, fuqarolar hamda millatga nisbatan qo'llashning uddasidan chiqqan. To'rtinchidan, Behbudiy zamonaviy ilmni chuqur egallash bilan bir qatorda, uni huquqiy ma'rifat jihatdan kafolatlashga erishdi. U butun ijodini fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga qaratdi, inson va millat huquqi sohasida tadbirlar ishlab chiqib, barcha huquqiy hujjatlarning, qolaversa, shar'iy qonunlarning boshida himoyachi sifatida turdi. Beshinchidan, Behbudiy mustaqil, huquqiy, inson huquqlarini himoyalovchi davlat qurish uchun bor kuchini sarfladi.

Jadidlarning ilg'or vakili va fuqarolar huquqi himoyachisi sifatida ko'p amaliy ishlarni bajardi. Ya'ni ayrim dindorlar mutaassib (ko'r – ko'rona ishonuvchi) fikrlarda bo'lib, jadidlar qarashlariga tanqidiy munosabatda bo'lgan. Ular jadid yo'l boshchilarini dinsizlikda hamda qiyofalarini, ya'ni kiyimlarini o'zgartirganlikda aybladi. Behbudiy "Kiyim va tashabbuh masalasi"⁵² maqolasida bunga oydinlik kiritdi. O'sha murakkab vaziyatda jadidlarning harakatlari, yurish-turishi shariatga xilof emasligini dalillar asosida isbotladi.

Behbudiy o'lkada qonunlari mustahkam davlatni joriy qilish, millatni ozod va erkin ko'rish uchun ma'naviy va huquqiy jihatdan kurashib yashadi. U o'zining hayoti davomida madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy sohalarda inson erki va huquqining himoyasiga bag'ishlangan normalar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etdi.

"Turkiston madaniy muxtoriyat loyihasi" Behbudiy tomonidan ishlab chiqilgan⁵³. Loyiha rasmiy yuridik hujjat hisoblanadi. Temur Xo'jao'g'li fikricha: "Bu matn diqqat bilan o'rganilsa, Behbudiyning chor Rusiyasi qaramog'ida

⁵⁰ Саидов Х. Маърифат либосидаги озодлик. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 75.

⁵¹ Бехбудий М. Хайрул умури авсатухо / Хуршид. – Тошкент, 1906 йил. – №6.

⁵² Бехбудий М. Кийим ва ташаббух масаласи / Ойина. – Самарқанд, 1914. – №6. –Б. 802-805.

⁵³ Бехбудий М. Туркистон маданият мухторияти лойиҳаси / Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2003. – №8. – Б. 146-156.

Turkistonda yashayotgan turkistonliklar uchun (Buxoro amirligi va Xiva xonligi bunga kirmaydi) o'z davriga ko'ra g'oyat jasoratli, keng huquqlar talab etuvchi muxtoriyat istagani ma'lum bo'ladi⁵⁴. Hujjat to'la ma'noda inson huquqlarini tiklashga qaratilgan. Shuningdek, loyihaning "Umumiy maktablar" bo'limida ko'rsatilganidek, Turkistondagi o'qitish masalasi ham Rossiyadagi umumiy o'qituv masalasi kabi teng asosda bo'lishi qonuniylashtirilgan.

Bobning ikkinchi fasli *"Adib asarlarida milliy til taqdiri va taraqqiyoti masalalarining yoritilishi"* deb nomlangan. Behbudiyning til sohasidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. U matbuotni tashkil etishda, yangi usul maktablarini joriy qilishda, jadid maktablari uchun darsliklar yaratishda, o'zbek milliy tilini shakllantirishda katta xizmat qildi. "Ikki emas, to'rt til lozim" (1913)⁵⁵, "Har millat o'z tili ila faxr etar ("Oyina" 1914-yil, S.Ayniy)"⁵⁶, "Sart" so'zi majhuldir" (1914)⁵⁷, "Til masalasi (1915)" singari maqolalari buning isbotidir.

"Kitobat ul-atfol" o'zbek tili qoidalari asosida ishlab chiqilgan. Kitob 1917-yilga qadar ham bir necha marotaba nashr etilgan. 1908-yilgi nashri o'zbek va fors tillarida yozilgan. Muqovasida: "Majmuayi kitobat va inshodan birinchi juz maktabi ibtidoiya uchun" deb ko'rsatilgan. "Muharriri va noshiri mufti Mahmudxo'ja Behbudiy" deb yozilgan. Kitobning hajmi 27 bet, formati 27x18, yozuv hajmi o'rtacha har bir sahifada 20 qator. Kitob kirish, xat yozmoq shartlari, maktub yozishning tavsifi va odobi, oylarning nomlari, tinish belgilar va ish yuritishga doir hujjatlardan namunalarni o'z ichiga oladi. Darslik o'zbek tilida ilk qo'llanilayotgan xat namunalaridan iborat.

Behbudiy millatning ma'naviyati va ma'rifatini ko'rsatuvchi asosiy masala bu uning tili ekanini ta'kidlaydi. Tilga doir maqolalarida mutafakkir yagona adabiy til va uning sofligini saqlash masalalarini yoritadi, til o'rganishning millat taqdiri va madaniyatida tutgan o'rni masalasiga munosabat bildiradi. "Ikki til emas, to'rt til lozim"⁵⁸ maqolasida turli tillarning Turkiston hududidagi mavqeyini tahlil etib, ularning jamiyat ravnaqidagi o'rnini ko'rsatishga harakat qildi. Chunki millat taraqqiyoti omillaridan biri jahon ilm-fani, iqtisodi va siyosatidan xabardorligidir. Muallif turkiy tilni qadrlagan holda boshqa tillarni ham o'rganish zaruratini ta'kidlaydi. Shuning barobarida, bu sohadagi kamchiliklarga diqqat qaratadi. Behbudiyning ta'kidlashicha, "dars kitobi – arabiy, muallim – turkiy, taqir-u tarjimani forsiyligi xiyla ajibdur". Demak, "usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak".

Behbudiy turkiy, ya'ni o'zbek tilidan samarali foydalanish tarafdori edi. U o'zbek tiliga kirib kelgan, xalq uchun tushunish murakkab bo'lgan begona so'zlarni isloh qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Taraqqiyparvarning fikricha, o'zbek tilidagi forscha va arabcha so'zlarni isloh qilish oson emas, bu sun'iy amalga oshirib bo'lmaydigan va uzoq vaqtni talab qiladigan jarayondir. Jumladan, arab tilidagi so'zlarni isloh qilish to'g'risida Behbudiy mana bunday yozadi: "To'g'ridan to'g'ri

⁵⁴Keltirilgan manba. – B. 147-148.

⁵⁵ Behbudiy M. Ikki emas, t'urt til lozim. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2018. –B. 396-398.

⁵⁶ Ализода С. Хар миллат ўз тили ила фахр этар. – Toshkent: Akademnashr, 2001. – B.11-12.

⁵⁷ Behbudiy M. "Sart" s'uzi majhuldir. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2018. –B. 34-44.

⁵⁸ Behbudiy M. Ikki emas, t'urt til lozim. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 396-398.

demoq kerakki, baqadri imkon arabiy oz yozulsun. Arabiy ismlik nimarsalar jamlanganda, turkcha jamlansun. Masalan, ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar ... yozingiz”⁵⁹.

Behbudiy ona tilini o‘rganish bilan birga xorijiy tillarni ham egallash zarurligini inkor etmadi. Bu masalaning mohiyatini yaxshi anglagan Behbudiy ham xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun hech bo‘lmaganda bu tillardan birontasini o‘rganish zarurligini e’tirof etadi. Uning fikricha: “Dunyomizni ilm-u fandan xabardor bo‘lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoni, arabiy, jopuniy tillardan birini bilmoq kerak”⁶⁰.

Behbudiyning til sohasidagi qarashlari tizimida lingvistikaga doir “Til masalasi” maqolasi alohida ajralib turadi. Muallifning bu maqolasi 1915-yilda yozilgan bo‘lib, “Oyina” jurnalida e’lon qilingan⁶¹. Maqolada muallif til sohasidagi o‘ta dolzarb bo‘lgan muammolarni o‘rtaga tashlagan. Birinchi o‘rinda o‘zbek tilining ko‘p shevali til ekaniga munosabat bildirgan. “Behbudiy kundalik matbuot nashrlari chop etilib, xalq orasida keng ommalashgan joyda adabiy til normalari ma’lum me’yorga kirayotganini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, matbuot tilining rivoji xalq jonli tilidan ustun darajada ekanini uqtirib o‘tadi.”⁶²

Behbudiy boshqa mualliflarni ham “Oyina” jurnalida milliy tilning qadri, uni asrash to‘g‘risida chiqishlar qilishga undadi. Jurnalning 1914-yil 35-sonida chop etilgan “Har millat o‘z tili ila faxr etar” maqolasi⁶³ shunday chiqishlardandir. Saidrizo Alizoda bu maqolada tilga hurmat, turkiy tilda ma’nodoshi bo‘lsa ham yevropacha so‘zlarni qo‘shib ishlatish tilimizga putur yetkazishi to‘g‘risida kuyunchaklik bilan yozdi.

Umuman, milliy tilni asrash, boyitish va takomillashtirish ma’rifatparvar jadidlar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining asosini tashkil etgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Behbudiy asarlarida avlod tarbiyasi masalasining ifodalanishi”** deb nomlangan. Uning birinchi faslida **“Adibning maktab-maorifga doir qarashlari”** tadqiq qilingan. Behbudiy Turkistonda ma’rifat tarqatishning dastlabki yo‘li eski usuldagi maktablarni isloh qilish hamda usuli jadid maktablarini joriy etishda, deb bildi. U Turkiston o‘lkasida yangi maktab g‘oyasining asoschilaridandir. Samarqandda Rajab Amin qishlog‘ida yashovchi Abduqodir Shakuriyning bu boradagi sa’y-harakatlarini eshitib, uni o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi: “Mullo Abduqodir shahardan uch chaqirim tashqaridagi o‘z hovlisiga usuli jadida maktabi ochib ediki, bolalarni shahardan borib kelishi ko‘p mushkulligi uchun man roqimi huruf Mahmudxo‘ja mufti, janob balanddarajalik Samarqand gubernaturi va palitsiyamistirini olib borib ko‘rsatib va shaharg‘a o‘z hovling‘a ko‘chirib maktabni ochmoq uchun ruxsat olib, shaharga ko‘chirib edimki, ikki yil bo‘ladur”⁶⁴.

Behbudiy Ismoilbek Gaspirali tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitish bo‘yicha qoidalarni asos sifatida olgan edi. Ya’ni: sinfda (maktabda) bolalar soni o‘ttiztadan

⁵⁹ Бехбудий М. Тил масаласи. Танланган асарлар. Ж. II. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 32.

⁶⁰ Keltirilgan manba. – B. 33.

⁶¹ Keltirilgan manba. – B. 27 - 34.

⁶² Жабборов Э. Махмудхўжа Бехбудийнинг лингвистик қарашлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2021. – №5. – Б. 113.

⁶³ С.Айний. Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар / Ойина. – Самарқанд, 1914. – №35. – Б. 836-838.

⁶⁴ М.Бехбудий. Самарқанд мактаби ҳақида /Туркистон вилоятининг газети. – Тошкент, 1908 йил, 30 январь.

oshmasligi; bolalarni faqat ikki daf'a – yoz va qish boshlaridagina qabul qilish; har qabulda necha bo'lishidan qat'i nazar, bir sinf bo'lsin; har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lsin; agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket, ma'lum uyg'unlikda qo'yilmog'i lozim; 7-9 yoshlardagi bola 7-8 soat uzluksiz o'qiy olmaydi; uning uchun 8 soat kifoya. Har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus lozim; juma va bayram kunlari dam olinadi; o'n oy o'qishdan so'ng yozning issiq kunlarida ta'til bo'lishi maqsadga muvofiq; dars zeriktirmasligi lozim. Besh soatda besh turli fandan dars bermoq og'ir dagildir, lekin besh soat yolg'iz bir dars ila o'trashmoq buzar; shogirdlari urmiya, so'kmiya hojat yo'qdir; har hafta nihoyatinda shogirda haftalik taakira verilmalidir. Hafta bo'yi darslarina diqqatli o'lub, bildigi ishorat edilib, ofarin yozilmalidir; maktabning panjaralari (terazalari) buyuk va ichi ziyoli va oydin o'lmasina bik diqqat etmalidir... Sovuq xonada dars vermak, ilm o'rganmak og'irdir, begunoh sibiyona jazo vermakdir...⁶⁵.

1908-yili Turkiston general-gubernatorligining mahkamasida “Turkiston o'lkasida va undan chetda josuslik qilish masalasi”ning komissiyasi tuzildi⁶⁶. Bu, asosan, 1905-yildan keyin hurfikrlikni bo'g'ish maqsadida tuzilgandi. Komissiya dastavval jadidlar harakatini bo'g'ish yo'lidan bordi. Bu komissiya Turkistondagi boshqa ko'pchilik maktab va madrasalar ham jadidlar ta'siriga berilmasliklari uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar. Mahkama politsiyasining qilgan hisobotlari bo'yicha: “Toshkentda 1912-yilda ming kishidan ortiq 13 ta yangi maktab ham 31 ta kitob do'konlari bo'lgan”⁶⁷.

Behbudiy usuli jadid maktablarning asoslari, uning o'rni va roli, uning qadimgi maktablardan farqli tomonlari, millatning kelajagidagi ahamiyati, maktabda o'qitiladigan fanlar, o'qitish usullari, fanlarning turlari, o'quv-uslubiy qo'llanilishi, millat bolalarining usuli jadid maktablarida o'zlashtirishlari to'g'risida o'nlab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozdi. Muallifning o'zi buyuk muallim sifatida ilk bora o'quv darsliklariga asos soldi. Uning darsliklari millatimiz hayotida takrorlanmas manba sifatida bugungi kungacha yetib keldi.

Behbudiyning usuli jadida yo'nalishida yozilgan maqolalaridan: “Samarqand maktabi haqinda”, “Jug'rofiya ilmi”, “Samarqand usuli jadid maktabi xususida”, “Samarqand usuli jadid maktabini imtihoni xususida”, “Samarqand maktabi haqinda”, “Turkistonda maktab lisoni”, “Buxoroda usuli jadida”, “Yangi maktablar masalasi to'g'risida tavzeh”, “Maktablar haqinda”, “Maktablarg'a ruxsat olmoq tariqasi”, “O'quvchilarg'a yordam kerak” va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, usuli jadid maktablari uchun darsliklar yozdi: “Risolayi jug'rofiyayi umroniy” (1905); “Risolayi jug'rofiyayi Rusiy” (1905); “Risolayi asbobi savod alifboyi maktabi islomiya” (1905); “Madxali jug'rofiyai umroniy” (1907); “Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy” (1907); “Tafakkur ul-atfol” (Hikoyat va axloq risolasi) (1908); “Kitobat ul-atfol” (1908); “Amaliyoti islom” (1908); “Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunai jug'rofiya”(1908); “Tarixi islom” (1909); “Tatbiqoti diniya va fanniya” (1908); “Alifboyi maktabi islomiya” (forscha) (1908)⁶⁸.

⁶⁵ Долимов У. Жадидлар мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий – назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док... дисс. – Тошкент: 2008. – Б.236-237.

⁶⁶ Keltirilgan manba. – В. 236-237.

⁶⁷ Феодоров Е. Ўрта Осиёда миллий инкилобий ҳаракат тарихи. – Тошкент, 1925. – Б.32.

⁶⁸ Бехбудий М. Танланган асарлар. Ж. II. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 281.

Behbudiyning usuli jadid maktabining tahsili ikki qismdan iborat bo‘lib, har bir bosqich to‘rt yildan o‘qitilar edi. Birinchi bosqichning dastlabki yilida forscha va arabcha alfbo asosida yozuv o‘rgatilgan. Bolalarning zehnini o‘stirish uchun hisob darsi og‘zaki – suhbat tariqasida darslar o‘tkazilgan. Qur‘ondan suralar yod oldirilib nomoz o‘qittirilgan. Ikkinchi yilda “Haftiyak”dan dars olingan. Bolalarda o‘z diniga, ota- onalariga, o‘z vataniga sodiq bo‘lib yetishishlari uchun “Iymon va e‘tiqod” darsi o‘tilgan. Hisob darsi, turkiy, forsiy va arabiy adabiyotdan darslar o‘qitilgan. Adabiyot darsida ko‘plab she‘rlar yod oldirilar va matnlar o‘qitilar edi. Uchinchi yilda Kalomi Sharif kitobi, islom ibodati darsi, tajvid qoidalari, forsiy va turkiy she‘rlar, Sa‘diyning nasihatimiz asarlari, forsiy va turkiy adabiyot, til, tarix, islom tarixi, jug‘rofiya kabi darslar o‘tilgan. Usuli jadid maktabining birinchi bosqichi to‘rt yilda yakunlanardi. Bu to‘rt sinfni tamomlagan tolibning forsiy va turkiy tilda savodi puxta bo‘lar edi. Arab tili va uning ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lib, Qur‘onni tajvid qoidalari asosan qiroat qilardi. Din tarixi, zamonaviy dunyo tarixi o‘qitilgan. Hisob ilmidan saboq olingan. Behbudiyning ta‘kidlashicha, bu to‘rt sinf usuli jadidda o‘qigan tolib, o‘n sana eski maktab o‘qigan tolibdan yaxshi bilimga ega bo‘lgan. U yozgan edi: “Ishonmagan kishi kelsun, to‘rt yil o‘qigan bolalar borki, yuqoridagidan (ya‘ni sanalgan fanlardan – N.A) ziyoda nimirsa bilur va ko‘rsaturmiz”⁶⁹.

Bu to‘rt yil usuli jadida maktabini tamomlagan o‘quvchilarni biron kasbga yoki o‘qishni davom ettirishga murabbiyning o‘zi taqsimlar edi. Agar o‘quvchi qobiliyatli bo‘lib, o‘zi kasbni xohlasa, mudarrislikka borar yoki shu yo‘nalishdagi ish bilan shug‘ullanar edi. To‘rt yillik birinchi bosqichni tamom qilganlargina usuli jadidaning ikkinchi bosqichiga qabul qilinardi, bu qism rushdiyya (o‘rta) nomlanib, uning tahsili ham to‘rt yil bo‘lgan. Birinchi yilda arab tili, jug‘rofiya, shafaqiya (astronomiya), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, islom tarixi, Sa‘diyning “Guliston”i, forsiy va turkiy til o‘qitilgan. Ikkinchi yilda arab tili, arab tilining amaliy mashg‘ulotlari, “Shifoiya”, tarix, islom tarixi, axloq darsi, forsiy va turkiy til, hisob darslari o‘tilgan. Uchinchi yilda arab tili, hisob, umumiy tarix fanlari o‘rgatilgan. Rus tili o‘qitilgan. Unda ko‘proq amaliyotga alohida e‘tibor qaratilib, ish yuritishga doir hujjatlar ustida mashq qilingan. Turkiy tilda ish yuritishga doir amaliy dars o‘qitilgan. To‘rtinchi yilda arab va rus tillari amaliy darsi, turkiy ta‘lim (pedagogika), adabiyot namunalari, salomatlik, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq olganlar.

Sakkiz yillik maktabni o‘qib tamom qilgan o‘quvchi forsiy va turkiy tilda bemalol savod chiqarib, ikki tilda hatto adabiy maqolalar yoza olish darajasiga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, arab tilida, rus tilida o‘qib bemalol so‘zlasha olgan. Jug‘rofiya, tarix, axloq, hisob, salomatlik darsidan hayot uchun zarur bilimlarni egallagan. Shu bilan birga, Turkiston hududi bo‘listnoyxonalarida ish yuritish sohalarida ishlay olgan. Bu shogirdlar tijorat asoslaridan dars olib, tijorat bilan ham shug‘ullanishlari mumkin bo‘lardir. Shuningdek, mirzolik, muharrirlik vazifalarida ham ishlay olar, usuli jadida maktablariga muallimlik qilishlari ham mumkin edi. Agarda shogird bilimini yanada oshirishni istasa, shu jadid maktabining

⁶⁹ Behбудий М. Самарқанд мактаби ҳақида / Туркистон вилоятининг газети. – Тошкент, 1908 йил, 30 январь.

tavsiyanomasi bilan Misr, Turkiya kabi musulmon mamlakatlariga borib, ularning oliy o'quv yurtlariga kirib o'qishlarini davom ettirishga ham huquq berilgan.

“Kitobat ul-atfol” til sohasida ish yuritish bo'yicha qo'llanma hisoblanib, ayni paytda jadid maktablarida darslik sifatida foydalanilgan. Unda huquqiy tarbiya usullari mujassamlashgan. Ya'ni matnlar, xatlar, ish yuritishga oid tahlillar berilganki, bular o'quvchini, talabalarni tarbiyalash va o'z huquqlarini anglashida alohida vosita hisoblangan. Darslikda xususiy va rasmiy xatlarga alohida-alohida misollar keltirilgan. Berilgan xatlar yuqorida ko'rsatilgan o'n sakkizta talab qoidalari asosida yozilgan bo'lib, huquqiy axloq va odob namunalarining tipik ko'rinishlariga misol bo'ladi. Jumladan, “Ulug' Tangrim oti ila mehribon otajonim xizmatlarig'a”, “Sababi vujudu saodatim padari buzrukvor huzurlarig'a”, “Sevikli onam huzuri shariflarina”, “Janobi ustozu kiromim huzuri anvarlarina” kabi sarlavhalardan ham ko'rinib turibdiki, qo'llanilgan har bir atama axloq va odob me'yorlarining yuqori ko'rinishi hisoblanadi. Fuqarolarning o'z erki va huquqlarini anglashida ham mana shu munosabatlarning ta'sir kuchi ko'rinadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Yosh avlodda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash muammolari”** tahliliga bag'ishlangan. Behbudiy XX asr boshlarida yangi usuldagi maktablar tashkil qilish bilan bir qatorda, farzandlarning tarbiyasiga e'tibor qaratishni bosh vazifalardan deb bildi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lib, ularning ilmini, tarbiyasini, hayotini ham o'rgandi. Ulardagi tarbiya usullarini Turkistonga tatbiq etishga harakat qildi. O'z uyida maktab ochib, o'lka farzandlarini bepul o'qitdi. U o'qitish tizimida xalqaro miqyosdagi tarbiya usullarini qo'lladi.

Behbudiy yosh avlodda vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan maqolalar yozdi. Adibning “A'molimuz yoyinki murodimuz” maqolasida keltirilganidek, “...aqchalik otalar, albatta, to'y va ma'arakaga qizg'onmaganlaridek, bolani o'qutishg'a ham qizg'onmasalar kerakdur. Bolalar uchun tarbiyaxonalar (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyaxonalar zamoncha va milliy va diniy ruhda bo'lishi kerakdur. Bu tarbiyaxonalarni ochmoq uchun va hukumat maktablarig'a bola tayyor qilmoq uchun nashri maorif yoyinki jamiyati xayriya va yoyinki tarbiyati atfol jamiyati va yo o'zga ism ila, xulosa, jamiyatlar kerakdur. Toki bul jamiyat(lar) xalqdan oqcha jamlab millat bolalarini o'qutush va millatni oyandasi uchun kerak bo'laturg'on qozi, ya'ni sudya, zakunchi, ya'ni huquqshunos, injiner, ya'ni muhandis, muallim, ya'ni zamona maktabdori, millatni homiysi va xodimi, ya'ni Davlat Dumasig'a deputat, milliy sanoatxonalarimizni isloh va ihyo etuvchi, ya'ni texnik, tijoratxonalar va bonklarda bizg'a yordam beruvchi, ya'ni tijorat ilmini o'qug'on kommersant, shahar dumaxonalarig'a... bizni tarafdin kirib va saylanib, biz uchun, vatani uchun, dini mubini islom uchun... odamlarni yetushturmoq kerakdur”⁷⁰.

Behbudiy zamonaviy kadrlarni yetishtirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan ekanini ta'kidlaydi. Naim Karimov fikricha: “Behbudiy, bizningcha, ruslar yordamida emas, balki Turkistonda tashkil etilgan “Nashri maorif” singari milliy tashkilotlar yordamida nafaqat Rossiya, balki Makka, Madina, Misr, Istanbul, shuningdek, turkiy xalqlar istiqomat qilgan Kavkaz, Qrim, Orenburg, Qozonga borib,

⁷⁰ Behбудий М. Аъмолимиз ёйинки муродимиз / Ойна. – Самарқанд, 1913. – №7. – Б.154-156.

shu yerdagi dorifununlar yordamida ma'rifatli bo'lish, eng muhimi, davlat muassasalarida, tijorat sohalarida ishlay biladigan, Davlat dumasiga saylana oladigan kadrlarni tayyorlash orqaligina istiqloq uchun kurashni mumkin va lozim deb bilgan. Davlat, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport, fan va madaniyat sohalarida rahbar lavozimlarda ishlay oladigan kadrlarni voyaga yetkazish Behbudiy ma'rifatparvarlik konsepsiyasining pirovard maqsadini tashkil etgan"⁷¹.

U o'lkada farzandlarni tarbiyalash usullarini ko'rsatadi. Birinchi o'rinda uning o'zi shogirdlar yetishtirish uchun harakat qildi. U shogirdlariga ham ma'naviy, ham iqtisodiy yordam ko'rsatdi. Turkiston farzandlarini ilmiy qilishni birinchi masala deb bildi. U ustoz va shogirdlikka katta e'tibor qaratdi. Yoshlarning hatto o'z hisobidan taraqqiy etgan Turkiya, Misr kabi mamlakatlarga borib tahsil olishi uchun sharoit yaratib berdi. Behbudiydan otalarcha g'amxo'rlik ko'rgan shogirdlaridan biri Abdusalom Azimiy Turkiya safari oldidan ustozining aytganlarini xotirlab yozgandi: "Siz mening ko'rsatganlarimdek Istambuldagi Boyazid talabalar jamiyatiga boringiz. Mening va Gasprinskiy afandining salom hamda maktubini u yerga yetkazingiz. So'ngra jamiyat sizga xizmat o'rini ko'rsatur va xizmatdan forig' bo'lganingizdan keyin sizga Misr tahsilini ta'rif etib va har bir jihatdan yordam va maslahatlar berar, deya menga o'z liboslaridan safar liboslarini tayyorlab Istanbul va yoxud Misrga borib adres yuborganimdan keyin doimiy ravishda tahsil masorifin yuborib turishini va'da berib, Bog'chasaroy, Sevastopol va Istanbulga tavsiya qog'ozlari berib uzatdi"⁷².

Adib millat farzandlari o'z xalqining taraqqiysi uchun harakat qilishi, zamona bilan barobar bo'lib, ilm va ma'rifatga alohida e'tibor qaratishlarini istadi. Mutafakkirning qarashlarida vatanparvarlik asosini ilm tashkil etadi. "Millatlar qanday taraqqiy etarlar" maqolasida: "Taraqqiy qiluvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo'lib, o'z millatining "masolihayi zamoniyya"si uchun sa'y etar, millatni peshravig'a oqcha ila, hayrat ila iona qilmoqni millat boylarig'a taklif etar, tashviq va tahrir etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so'ylar, yozar va havoiji milliyya va zamoniyyani o'z millati mansubasig'a bildirarlar"⁷³ desa, "Vatanparvarlik kerak" maqolasi millat yoshlarini Vatanni sevishtga chorlaydi. Behbudiyning *vatanparvarlikka da'vati* yoshlar qalbiga vatan tuyg'usini singdirishning asosini tashkil etadi. Behbudiy millat yoshlari Vatanning nima ekanligini tushunishlari uchun Yevropa mamlakatlarida kechayotgan jarayonlarni tasvirlaydi. Rossiya, Germaniya, Belgiya, Avstriya, Angliya mamlakatlaridagi yerlar, ularning joylashishi, maydonlarining qanchaligi, ularning Turkistongacha bo'lgan masofalari ilmiy jihatdan asoslanishi o'quvchida qiziqish uyg'otadi. O'zga mamlakatlarning yutuqlarini ko'rsatish orqali yoshlarda o'z mamlakatiga, vataniga mehr uyg'otadi. Behbudiyning o'zi yozganidek: "Matlabimiz Turkiston musulmonlarining *vatanparvarligig'a* tashviq etmoq edi" deydi. Muallif yozadiki, "Vatanimizga dushman e'loni harb etgan uchun ta'sirlanib, izhori vatanparvarlik etmoqimiz lozimdur. Izhori vatanparvarlik esa baqadari hol va aqcha va mol ila

⁷¹ Каримов Н. Эрк ва хуррият жарчиси / Махмудхўжа Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2014. – Б. 34-35.

⁷² Азимий А. Бехбудий ҳақида хотира ва таассуротларим / Зарафшон. – Самарқанд, 1923 йил, 25 март.

⁷³ Бехбудий. Миллатлар қандай тараққий этарлар?. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Б. 389-390.

davlatg‘a ionat etmoqdir. Hamda nafsoniyatdan va xalq afkorini parokanda qilaturgan ish va so‘zlardan saxlanmoqdur. Hukumatg‘a ot va aroba va ashyo kerak bo‘lganda, osonlik ila bermoq kerakdur. Holbuki, hukumat pulini berib olar. Ba’zi mamlakatda muhoraba zamonida xaloyiq nimarsasini hukumat nasiya ham oladur”⁷⁴.

Alohida ta’kidlash kerakki, Behbudiy aksar maqolalarida *millatparvarlikka chaqiradi*. Taraqqiyparvarning “Muhtaram yoshlarga murojaat”⁷⁵ maqolasi yoshlarni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgani jihatidan ahamiyatlidir. Behbudiy yoshlarga qarata, eng avvalo, o‘lkada maktablar taraqqiyning boshlang‘ich poydevori ekanligini aytadi. Ularni muallif: “Madaniyat va saodatning durdonasidir”, deydi. Millat yoshlariga: “Millat, eng avvalo makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Maorif silohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmay, “muborazai hayot maydonida” mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur”⁷⁶.

Ikkinchidan, Behbudiy yoshlarga – millat bolalarining ibtidoiy tarbiyasiga e’tibor qaratilishi lozimligini uqtirdi. Unda yangi jadid maktablarining tashkil etilishi va ulardagi intizom va tarbiyaga e’tibor berilishini istadi. Shuningdek, Behbudiy: “bolalarni milliy va diniy ruhda mukammal suvratda yetushdur”ish vazifasini yuklaydi.

Uchinchidan, Behbudiy maorif kadrlari masalasida qayg‘urdi. “Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo‘lub, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur”. O‘lkada yuzlab maktablarni ochib, Turkistonda muallimlarning sonini ko‘paytirish masalasini qo‘ydi. Mutafakkirning o‘zi aytganiday: “Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur”.

To‘rtinchidan, Behbudiy jaholatdan millatni faqat ma’rifat qutqaradi, degan g‘oyani ilgari surib, yoshlarimiz oldiga muallimlik qisqa kurslarini joriy etish vazifalarini ham yukladi. Bunday kurslarning Toshkentda Munavvarqori tomonidan tashkil etilgani va uni mamnuniyat bilan qabul qilishi hamda natijaning yaxshi bo‘lishiga ishonch bildirdi.

“Tahsil va safar zamoni va taom” maqolasi Turkiston farzandlariga vatanparvarlik va millatparvarlikni targ‘ib qiluvchi asosiy asarlardan. Behbudiy yoshlar va xalqimizga ta’lim berishda Qur’oni Karim va hadislardan samarali foydalanish zarurligini ta’kidladi. U din arbobi bo‘lgani bois diniy tarbiyadan keng foydalandi. Jumladan: Allimu avladakum li zamanin g‘ayri zamanikum, liannahum xuliqu li zamanin g‘ayri zamanikum”. Ya’ni: “Ey musulmonlar! Bolalaringizg‘a *kelar zamon ilmuni o‘rgatingiz!* Zeroki, alarni Xudo taolo xalq etdi, sizni zamonangizdan boshqa, ya’ni *kelar zamon uchun*”⁷⁷. Behbudiy “kelar zamon ilmi” va “kelar zamon uchun” iborasini qo‘llaganda juda katta mahorat egasi ekanligi ko‘rinadi. Ya’ni har bir o‘lka farzandi kelar zamon uchun hamda kelar zamonga mos ravishda tarbiya va ta’lim olishi targ‘ib qilinadi.

⁷⁴Бехбудий. Ватанпарварлик керак. Танланган асарлар. Ж. I. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 443-444.

⁷⁵ Бехбудий. Мухтарам ёшларга мурожаат. Танланган асарлар. Ж. I. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 443-444.

⁷⁶ Keltirilgan manba. – B. 439-440.

⁷⁷ Бехбудий М. Таҳсил ва сафар замони ва таом. Танланган асарлар. Ж. II. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 55.

Umuman, Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashni ta‘lim tizimining asosiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo‘ydi. Dunyoviy va diniy ta‘limni uyg‘unlashtirdi. Yangi maktab g‘oyasini millat va milliyat masalalariga moslab chiqdi. Bu orqali millat istiqboliga munosib xizmat qildi.

XULOSA

Tadqiqotda erishilgan natijalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

